

SHOIR VA JAMIYAT MUNOSABATI (ALISHER NAVOIY G‘AZALI MISOLIDA)

G‘ulomova Sevinch G‘ulom qiziToshkent davlat Sharqshunoslik universiteti
Sharq xalqlari tillari va adabiyoti fakulteti
Arabshunoslik oliy maktabi 2-bosqich talabasi
sevinchnur23gulomova@gmail.com**Mutalova Gulnora Sattorovna**

Ilmiy rahbar, TDSHU Arabshunoslik oliy maktabi dotsenti, PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20454204>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Jahondin kechtim-u kechmas mening jonimdin el” g‘azali asosida shoir va jamiyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlar tahlil qilinadi. G‘azalda shoirning ruhiy iztirobi, jamiyat tomonidan tushunilmaslik holati hamda ijodkorning ma‘naviy yolg‘izligi badiiy obrazlar orqali yoritilgan. G‘azalda shoirning xalq bilan uzviy bog‘liqligi va shu bilan birga ichki begonalashuvi falsafiy ruhda ochib beriladi. Tadqiqot davomida Navoiy g‘azalidagi g‘oyalar bugungi jamiyat muammolari bilan qiyosiy tahlil qilinib, uning zamonaviy ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Shoir va jamiyat, falsafiy mazmun, ruhiy iztirob, ijodkor va jamiyat munosabati, ma‘naviy yolg‘izlik, badiiy obraz, tasavvufiy qarashlar, adabiy meros.

Annotation. This article analyzes the complex relationship between the poet and society based on Alisher Navoi’s ghazal “*Jahondin kechtim-u kechmas mening jonimdin el.*” The ghazal artistically reflects the poet’s inner suffering, social misunderstanding, and spiritual loneliness. It reveals the poet’s inseparable connection with society alongside his inner alienation through a philosophical perspective. The study also compares the ideas expressed in the ghazal with contemporary social issues and highlights the enduring relevance of Navoi’s poetic heritage in modern times.

Keywords: Poet and society, philosophical content, spiritual suffering, poet–society relationship, spiritual loneliness, artistic imagery, Sufi concepts, literary heritage.

Jahondin kechtim-u kechmas mening jonimdin el,
Men ilig jondin yudum, chekmas ilig qonimdin el.
To‘sh-to‘shimdin baski rasvolig‘ o‘ti lov-lov yonar,
Har taraf yo‘ldin chiqarlar o‘lsalar yonimdin el.
Baxtim uyqusig‘a go‘yokim surudedur hazin,
Ko‘yida bukim uyumas har tun afg‘onimdin el.
nimaslar bir-birin yog‘qan mazallar gardidin,
So‘rg‘ali holim kirib chiqquncha vayronimdin el.
Menda tumori junundek pech, vahkim, bexabar,
Har taraf ko‘nglumda qonlig‘ dog‘i pinhonimdin el.
Istaram, ey Xizr, kelgaymen qilib jom birla tavf,
Ka‘bayi ko‘yin xabar topquncha borg‘onimdin el.
Ey Navoiy, qilmag‘aylar ayb agar devonamen,
Ul pari vasfin o‘qug‘an soyi devonimdin el.

Alisher Navoiy o‘zbek mumtoz adabiyotida nafaqat buyuk shoir, balki jamiyat muammolarini chuqur his etgan mutafakkir sifatida alohida o‘rin egallaydi. Uning g‘azallarida inson ruhiyati,

ma'naviy izlanish va jamiyat bilan munosabat masalalari yetakchi mavzulardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, shoir va jamiyat o'rtasidagi murakkab, ba'zan ziddiyatli aloqalar Navoiy ijodida chuqur falsafiy mazmunda yoritilgan. "Jahondin kechtim-u kechmas mening jonimdin el" deb boshlanuvchi g'azal shoirning jamiyat bilan munosabatini ochib beruvchi muhim asarlardan biridir. Ushbu g'azalda ijodkorning ichki iztirobi, xalq orasidagi tushunilmaslik holati va ma'naviy yolg'izligi ta'sirchan badiiy obrazlar orqali ifodalangan. Mazkur maqolada ushbu g'azal misolida Alisher Navoiy ijodida shoir va jamiyat munosabati tahlil qilinadi. G'azalda ilgari surilgan g'oyalar badiiy va falsafiy jihatdan yoritilib, ularning bugungi kun uchun ahamiyati asoslab beriladi.

Alisher Navoiyning "Jahondin kechtim-u kechmas mening jonimdin el" g'azali shoir va jamiyat o'rtasidagi murakkab, ziddiyatli va doimiy munosabatlarni ochib berishga qaratilgan falsafiy asardir. G'azal markazida ijodkor shaxsining jamiyat ichidagi o'rni, uning ruhiy holati va jamiyat tomonidan tushunilmaslik muammosi turadi. Navoiy shoirni jamiyatdan uzilgan shaxs sifatida emas, balki jamiyat ichida yashab, ammo undan ma'naviy jihatdan ilgarilab ketgan inson sifatida tasvirlaydi.

G'azal quyidagi bayt bilan boshlanadi:

**Jahondin kechtim-u kechmas mening jonimdin el,
Men ilig jondin yudum, chekmas ilig qonimdin el.**

G'azalning matla'si (birinchi bayti) oshiqning bu dunyodagi o'rni va uning ijtimoiy muhit bilan to'qnashuvini aks ettiradi. Birinchi misrada shoir "jahondin kechish" iborasi orqali moddiy dunyodan, uning orzu-havaslaridan mutloq voz kechganini bildiradi. Biroq uning bu uzlati elni (jamiyatni) qoniqtirmaydi; el hanuz uning "jonidan kechmaydi", ya'ni unga turli tazyiqlar o'tkazishda davom etadi. Ikkinchi misradagi "Ilig yuvmoq" (qo'l yuvmoq) iborasi o'z jonidan umidini uzishni anglatadi. Oshiq o'z hayotini ishq yo'liga tikib bo'lgan, ammo jamiyat uning jismoniy mahv etilishiga (qonini to'kishga) intilmoqda. Bu yerda "ilig" (qo'l) so'zining takrorlanishi badiiy san'atda tazod va parallelizm hosil qilib, oshiqning taslimiyati va elning tajovuzi o'rtasidagi jarlikni ochib beradi

**Baxtim uyqusig'a go'yokim surudedur hazin,
Ko'yida bukim uyumas har tun afg'onimdin el.**

Navoiy ushbu baytda tashxis (shaxslantirish) va tazod san'atlaridan unumli foydalanadi. Oshiqning "baxti" uyquda, ya'ni u toleyidan umidini uzgan. Uning tunlardagi nola va afg'onlari esa o'sha uxlayotgan baxt uchun go'yo g'amgin bir "surud" (alla/qo'shiq) vazifasini o'taydi. Bu yerda paradoksal holat mavjud: bir tomondan, lirik qahramonning nolasi o'z baxtini battar uxlatlsa (uni uyg'ota olmasa), ikkinchi tomondan, bu ovoz butun mahallani (elning uyqusini) buzadi. Shoir bu orqali oshiqning dardi shaxsiy fojidan chiqib, atrofdagilarning ham tinchini buzuvchi ijtimoiy hodisaga aylanganini ta'kidlaydi. Oshiqning ichki dunyosidagi sukunat (uxlayotgan baxt) va tashqi dunyodagi shovqin (elning uyqusizligi) o'rtasidagi ziddiyatli ruhiy iztirobni ifodalaydi.

To'rtinchi baytda esa jamiyatning oshiqning holatiga bo'lgan munosabati yanada ochiqroq ifodalanadi:

**Tanimaslar bir-birin yog'qan mazallar gardidin, So'rg'ali holim kirib chiqquncha
vayronimdin el.**

Bu o'rinda "mazallar gardi" (malomatlar, xo'rliklar changi) obrazidan foydalanib, ishq yo'lidagi uzlatning og'ir manzarasini chizadi. Mazkur baytda jamiyat va fard o'rtasidagi ziddiyat o'zining yuqori nuqtasiga chiqadi: oshiqning dardli olami shunchalik zalvorliki, hatto unga hamdard bo'lish niyatida kelganlar ham bu g'am quyunidan o'zligini yo'qotib qo'yadilar. Bu orqali

shoir haqiqiy ishq — kishi bilmas, faqat vayronalarda kechadigan, xalq nazaridagi "rasvolik" va "chang-to'zon" ichidagi buyuk bir sadoqat ekanini ta'kidlamogda.

Ey Navoiy, qilmag'aylar ayb agar devonamen, Ul pari vasfin o'qug'an soyi devonimdin el.

G'azalning yakunlovchi baytida Navoiy an'anaviy "tazallu" (hokisorlik) yo'lini tutadi va o'zining "devonaligi" (aqlidan ozganligi) sababini izohlaydi. Bu yerda "devona" so'zi ikki xil ma'noda qo'llangan: biri — aqli raso bo'lmagan kishi, ikkinchisi — ishq yo'lida jazbaga tushgan oshiq. Shoir elga murojaat qilib, "Agar meni devona desalar, ayblamanglar", deydi. Buning sababi esa uning yozgan "devoni" (she'rlar to'plami)dir. Kimki Navoiyning devonini o'qisa va undagi ulug' yorning (ilohiy go'zallikning) tavsifini ko'rsa, o'zi ham beixtiyor devonaga aylanadi. Bu bayt Navoiy she'riyatining qudrati va ta'sir kuchiga ishora bo'lib, shoir o'z dardini shunchaki shaxsiy holat emas, balki o'quvchini ham ishq girdobiga tortuvchi umuminsoniy tuyg'u sifatida taqdim etadi.

G'azalning boshqa baytlarida ham shu asosiy g'oya davom ettiriladi. Bu holat ijodkorning jamiyat bilan majburiy bog'liqligini anglatadi. Jamiyat shoirni kuzatadi, baholaydi, undan foydalanadi, biroq uning ichki dardiga sherik bo'lmaydi. G'azalda muhim badiiy va falsafiy tushunchalardan biri sifatida "el" obrazi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu tushuncha faqat oddiy xalqni emas, balki jamiyatning umumiy qarashlari, ijtimoiy muhit va hukm chiqaruvchi kuchni ifodalaydi. Navoiy shoirni jamiyatdan butunlay ajralgan shaxs sifatida emas, balki jamiyat orasida bo'la turib, uning ma'naviy cheklovlari va noto'g'ri baholaridan aziyat chekayotgan inson sifatida tasvirlaydi. G'azalda ifodalangan ruhiy iztirob shoirning shaxsiy dardi sifatidagina emas, balki ijodkorlikning tabiiy holati sifatida namoyon bo'ladi. Navoiy iztirobni zaiflik belgisi emas, balki shoirning jamiyatdagi adolatsizlik va ma'naviy tanazzulga befarq emasligining ifodasi sifatida talqin qiladi. Bu iztirob uni jamiyatdan uzmaydi, aksincha, ma'naviy jihatdan yetuklashtiradi va ijodkor sifatida shakllantiradi. Masalan, baytlarda uchraydigan "junon" va "devonalik" tushunchalari. Mumtoz adabiyot va tasavvuf an'alarida devonalik salbiy holat emas, balki ishq va haqiqat yo'lidagi oliy ruhiy darajani anglatadi. Jamiyat nazarida g'ayritabiiy bo'lib ko'ringan bu holat shoir uchun ma'naviy kamolot bosqichidir. Shoirning jamiyat me'yorlariga sig'masligi uning zaifligi emas, balki ruhiy yuksakligining natijasidir.

Shoirning "jahondin kechdim" degan fikri real hayotdan chekinish emas, balki jamiyatdagi axloqiy buzilishlarga qarshi ichki norozilik ifodasidir. Bu norozilik ochiq isyon shaklida emas, balki falsafiy va badiiy qarshilik tarzida namoyon bo'ladi. Navoiy jamiyatni inkor etmaydi, balki uni ma'naviy jihatdan isloh qilishga da'vat etadi. Shoirning jamiyatdan uzoqlashishi aslida jamiyatni anglash va tozalash istagi bilan bog'liq.

Alisher Navoiy "Jahondin kechtim-u kechmas mening jonimdin el" g'azali orqali shoir va jamiyat o'rtasidagi murakkab, ziddiyatli va uzviy bog'liqlikni chuqur falsafiy asosda yoritadi. G'azalda shoir jamiyatdan chekinishga intilgan bo'lsa-da, undan butunlay ajralib keta olmasligi badiiy ifoda topadi. Bu hol ijodkorning jamiyat bilan munosabati doimo ichki kurash va iztirob orqali kechishini ko'rsatadi. Navoiy shoirni jamiyatdan uzilgan shaxs sifatida emas, balki jamiyatning ma'naviy kamchiliklarini teran his etgan va ularni badiiy so'z orqali fosh etgan mutafakkir sifatida tasvirlaydi. G'azalda ifodalangan ruhiy iztirob, devonalik va junon tushunchalari shoirning zaifligi emas, balki uning ma'naviy yuksakligi va haqiqatga sadoqatining belgisi sifatida talqin qilinadi. Shoir va jamiyat o'rtasidagi bu ziddiyat bugungi davrda ham dolzarb bo'lib, mazkur g'azal ijodkor shaxsining jamiyatdagi o'rni va mas'uliyatini anglashda muhim adabiy-falsafiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. Jild 3: Xazoyin ul-maoniy (Gharoyib us-sig‘ar). – Toshkent: Fan, 1988.
2. Eshonqulov J. Alisher Navoiy she‘riyatida timsol va ramzlar olami. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2019. – 180 b.
3. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. To‘rt jildlik. – Toshkent: Fan, 1983–1985.
4. Alisher Navoiy. Gharoyib us-sig‘ar (Xazoyin ul-maoniy) [Elektron resurs] //Ziyouz elektron kutubxonasi. <https://nportal.ziyouz.com>